



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
“Aniq va tabiiy fanlar o‘qitish metodikasi”
(Geografiya)**

**MAVZU: TEST MAQSADLARI,
TEST FUNKSIYALARI VA
TURLARI.**

Bajardi: K.A Abduhaliqov


Tekshirdi: S. R Akbarova

Toshkent 2021

Reja:

- Test haqida ma'lumot.
- Test tarixi.
- Test shakllari va ulardan foydalanish.
- Xulosa.

Test nima – Test-berilgan alternativ javoblardan to'g'risini tanlash shaklidagi nazorat topshirig'idir. O'quv fani bo'yicha tuziladigan nazorat testlari, boshqa o'quv topshiriqlariga o'xshab, to'rt xil elementlardan tarkib topadi; mazmun, maqsad, funktsiya, metod.




Boshqacha aytganda, test ma'lum o'quv materialini asosida tuziladi, bilimlarni nazorat qilish maqsadiga qaratiladi, faoliyatda bilimlarni tekshirish vazifasini bajaradi, berilgan javoblardan to'g'risini yoki eng to'g'risini ajratish metodi bilan bajariladi.



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil, 5-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlari uchun talabalarni test usulida qabul qilish to'g'risida»gi Qarori O'zbekistonda MDH davlatlari ichida birinchi bo'lib testdan foydalanishga keng yo'l ochib berdi. Jahon pedagogikasi va psixologiyasida mustahkam o'rin olgan test usuli mamlakatimiz ta'lim tizimida jadallik bilan tadbiq qilinmoqda. Respublika Davlat Test markazining faoliyat ko'rsatayotganligi mamlakatimizda testshunoslikning davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masala darajasiga ko'tarilganligining yaqqol dalilidir.

Pedagogik testlar AQSH, Niderlandiya, Angliya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya va boshqa ko'pgina mamlakatlarda keng rivoj topdi. Ushbu ro'yxatga asosan turmush darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar kirganligi tasodif emas. Bunda quyidagi zanjirli bog'lanish mavjud: testlarni qo'llash ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; ta'lim sifati esa boshqaruv sifati bilan bog'liq; oqilona boshqaruv esa aholi turmush darajasini oshirish uchun zamin yaratadi.

— наука, изучающая возм.
изличные свойства личности с по.
льно разработанных тестов и методов.
претации.



Test shakllari va ulardan foydalanish.



Testning rivojlanish tarixi va uning ijobiy tomonlari :




Test (ingl. - sinov) birinchi marta 1864 yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan talabalarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlarining nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologi F.Gamelton ishlab chiqdi.

Test sinovlari dastlab psixologiya fani doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari birinchi marta amerikalik psixolog E Torndayk tomonidan yaratilgan. Psixologiya va pedagogikada test sinovlarining rivojlanishi matematik uslublar ham qo'llashni taqozo qildi.

Bunday uslublar o'z navbatida testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga talabalarning o'quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish: aqliy (intellektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarini yaratish va qo'llash hamda talabalarning o'qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlarni yaratish va ulardan foydalanish sohalari rivojlana boshladi.

Test tuzuvchilar turli odamlarda ta'sirga javob berish vaqti bir xil emasligini aniqladilar, bu esa odamlarning aqliy qobiliyatlarini o'rganish zarurligi va turli darajadagi testlar yaratish usuli bo'yicha amaliy ishlar olib borish lozimligiga olib keladi.

Test sinovlarining asosiy maqsadi: ham o'tilgan darslarni o'zlashtirish darajasi to'g'risida, ham navbatda o'rganilishi lozim bo'lgan dars hajmi to'g'risida o'qituvchiga axborot berish; o'qituvchiga o'qitish uslubini tanlashda yordam berishdan iborat deb hisoblangan.




Shuni ta`kidlash lozimki, Amerika maktab direktorlari Assotsiatsiyasi: " Test sinovi o'tkazmasdan ta`lim berish mantiqsizlikdir" deb hisoblaydilar. Faqat testni qo'llash natijasidagina nazoratdan ta`limga yo'naltirilgan qaytuvchan aloqa haqida fikr yuritish va so'ngra qanday yo'nalishda harakat qilishni bilish mumkin, degan fikrlari ham ma'lumdir.

TEST

Fransiya parlamenti 1989-yilda ta'limni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari haqida qonun qabul qildi. Unda xususan, talabalar bilimini xolisona baholash usuli bo'yicha o'qituvchilar majburiy suratda tayyorgarlikdan o'tishlari ko'zda tutiladi: Busiz 1992yildan boshlab Fransiyada o'qituvchilik qilishga ruxsat etilmaydi. Shunisi qiziqki, Fransiya to'qson yillik test an'analariga ega bo'lgan davlatdir.




O'tgan asrning 70-yillari oxirida Peterburgdagi Karnegi-Melon universitetining bir guruh sotsial-psixologlari AQSHda test o'tkazishning zamonaviy ahvolini o'rganishga bag'ishlangan maxsus tadqiqot olib bordilar. Aslida, tadqiqotchilarning maqsadi o'quv yurtlaridagi testlarni keng miqyosda qo'llash sabablarini aniqlash edi.



**Mutaxassislik (umumtexnik)
fanlardan test topshiriqlari tuzishda
Yopiq (bir yoki bir necha to'g'ri
javobli), ochiq, muvofiqlikni va to'g'ri
ketma-ketlikni aniqlashga oid test
topshiriqlaridan foydalanish tavsiya
etiladi. Bunda bir o'quv maqsadiga
erishganlikni turli test topshiriqlari
yordamida aniqlash (invariant) testlar
tuzish ham maqsadga muvofiqdir.**

Ochiq topshiriqlar. Agar test topshirig'i matnida, uning tayanch so'zlari yoki gap tushirib qoldirilgan bo'lsa, bunday topshiriq ochiq (tugallanmagan) test deb ataladi.

Yopiq topshiriqlar. Bunday topshiriq savoldan va bir necha javoblardan iborat bo'ladi, bu javoblardan biri to'g'ri, qolganlari to'g'riga o'xshash, biroq noto'g'ri bo'ladi. Taklif qilinadigan javoblar soni ikkitadan beshtagacha va bundan ko'proq bo'lishi mumkin. Sinovdan o'tuvchining tanlagan javobiga ko'ra, test topshirig'i tegishli ikkita kod: 1 yoki 0 bilan kodlanib, so'ngra shu holda EHMga kiritiladi.



«Ha» va «yo'q» degan ikkita javobli Yopiq test topshiriqlari ustida alohida to'xtalib o'tish lozim. Ba'zi bir topshiriqlar ularning javoblari ikki xil ma'noni bildiradigan qilib bayon etilishi mumkin. Masalan: Siz testlar qo'llanishini xush ko'rasizmi? - Ha (xush ko'raman). Yo'q (xush ko'rmayman). Bunday hollarda javoblar uchun «to'g'ri» va «noto'g'ri» so'zlarni ishlatish maqsadga muvofiqdir. Masalan:

Yopiq test topshiriqlari bilimlarni kompyuterdan foydalanib nazorat qilishga qulay.



Xulosa

Test qanday shaklda, qanday ko`rinishda bo`lmasin o`quvchilar va talabalar bilimini nazorat qilish uchun eng qulay, eng ma'qul va eng maqbul variantdir.

E'tiboringiz uchun rahmat.

